

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KAZAKOV ILXAM ROZMAMATOVICH

**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK
BIRLIKLAR TALQINI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам
Content of Dissertation Abstract of Doktor of Science (DSc) on
Philological Sciences**

Kazakov Ixam Rozmamatovich

О‘zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini.....3

Казакoв Ильхам Розмаматович

Интерпретация лингвокультурологических единиц в узбекском и
каракалпакском языках.....33

Kazakov Ixam Rozmamatovich

Interpretation of linguocultural units in Uzbek and Karakalpak languages...65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KAZAKOV ILXAM ROZMAMATOVICH

**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA LINGVOKULTUROLOGIK
BIRLIKLAR TALQINI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil424 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.aknuk.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Qudaybergenov Mambetkerim Sarsenbayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Abdushukurov Baxtiyor Buranovich
filologiya fanlari doktori, professor

O'razboyev Abdulla Durdibayevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Pirniyazova Alima Kudiyarovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "09" 10 kuni soat 9:00 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179-A uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks: (99861) 222-85-47; e-mail: kk_gumanitar@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin (10 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179-A uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks (99861) 222-85-47; e-mail: kk_gumanitar@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "28" 09 kuni tarqatildi.
(2024-yil "28" 09 daqiqa 6 raqamli reestr bayonnomasi).



A.I. Alniyozov
A.I. Alniyozov
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

A.M. Bekimbetov
A.M. Bekimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), katta ilmiy xodim

P.A. Najimov
P.A. Najimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar mustahkam qaror topayotgan bir paytda turli millatlar tili va madaniyatini o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylanib ulgurdi. Darvoqe, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda nafaqat tilning madaniyat bilan aloqadorligi, balki uning o'zi madaniyatning tarkibiy bir qismi, undan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vosita ekanligi xususidagi faraz o'rtaga tashlandi. Haqiqatan ham, bugungi kunda til madaniyatni yaratuvchisi sifatida uning rivojlanishi, taraqqiy etishida, shu bilan birga saqlanishida muhim ahamiyatga egadir. Demak, til butun olam manzarasini ta'rif-u tavsiflovchi, insonni tabiat va jamiyatdagi boshqa mavjudotlardan farqlovchi, ajratib turuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Muayyan millat vakili o'z hayotini tilsiz tasavvur qilishi aslo mumkin emas. Shuning uchun ham til hamisha inson va millat fenomenini markazida turadi. U har qanday madaniyatning negizini tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligida til va milliy-madaniy yaxlitlik xususida fikr yuritilgani holda ushbu uzviylikdagi madaniy unsurlarni farqlash muhimligi qayd qilingan. Unga ko'ra, tillarni qiyoslash jarayonida milliy xususiyatlar ochiladi¹. Ushbu fikrni shunday to'ldirish mumkinki, tillarni qiyoslash orqali nafaqat milliy, balki madaniy qiyofa ham dunyo yuzini ko'radi. Har qanday millat o'zining milliy nigohiga ega. Milliy nigoh orqali milliy tushuncha yuzaga keladi. O'sha milliy tushuncha olam lisoniy manzarasining voqelanishiga aloqador leksikada, frazeologik va paremiologik birliklarda, turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplarda e'tiborga tushadi. Shu o'rinda, milliy-madaniy nigohga turli xil ta'riflar berilganligini ta'kidlash kerak. Chunonchi, tabiiy til inson dunyosini milliy o'ziga xos variantlarda aks ettirishi ta'kidlanib, milliy nigoh va milliy baholash hodisalarining yaxlitligi ko'rsatilgan².

Til kishilarning butun olam haqidagi tasavvurlari majmui bo'lganligi bois, olamning lisoniy manzarasi doimo tilda voqelanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining boy latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin"³.

Milliy istiqloq sharofati bilan Qoraqalpog'iston hududida o'zbek va qoraqalpoq tillarining keng iste'molda bo'layotganligi, ta'lim tizimida ularni yonma-yon o'rgatilayotganligi ushbu qardosh tillarni tilshunoslikning turli sohalari

¹ Гак В.Г. Национально-языковая специфика меронимических фразеологизмов // Фразеология в контексте культуры. –М.: "Языки русской культуры", 1999. –С. 260-261.

² Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. –М., 1985. –№ 3. –С. 33.

³ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabr kuni muhtasham "Kongress-xoll" saroyida O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi so'zlagan nutqi. <https://xs.uz>

bo'yicha, xususan, lingvokulturologik yo'nalishda qiyosiy jihatdan o'rganish zaruratini vujudga keltirdi. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi lingvokulturologik birliklar talqini hanuzgacha monografik planda yoritilmaganligi kun tartibidagi masala dolzarbligini asoslaydi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida" Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyundagi VMQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari hamda innovatsion rivojlanishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq tarzda amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Olam lisoniy manzarasining vujudga kelishida muayyan etnosning tutgan o'rni, til va mentalitet tushunchalari, tilning tafakkur, ruhiyat bilan aloqadorligi, shuningdek, lingvokulturologik birliklarni tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning quyidagi yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, AQSH milliy fanlar akademiyasi, Amerika antropologik assotsiatsiyasi, Amerika lingvistik hamjamiyati (AQSH), Avstraliya Milliy universiteti (Kanberra), Florida, Kaliforniya universitetlari (AQSH), Pekin universiteti (XXR), Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya), Indiana, Vermont universitetlari (AQSH), Graysfald universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi Rus tili instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti (RUDN), Moskva lingvokulturologik maktabi (Rossiya), Qozoq Milliy universiteti (Qozog'iston), O'zFA O'zbek tili,

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://cyberpedia.su/6x64c2.html>, <https://www.disercat.com>, <http://moluch.ru/archive/59/8462/>, cheloveknauka.com, <https://www.sgu.ru>, www.dslib.net, <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/>, <http://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/>, <http://m.dissforall.com/catalog/t13/s>, <http://www.edu.uz>, internauka.ru, philology.ru, americanenglish.state.gov va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

adabiyoti va folklori instituti, Qoraqalpoq davlat universitetida (O‘zbekiston) olib borilgan.

Tilni uning sohibi bo‘lgan inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar orqali quyidagi ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan: til va madaniyatning aloqadorligiga oid ilk fundamental tadqiqotlar bajarilgan (AQSH milliy fanlar akademiyasi, Amerika antropologik assotsiatsiyasi, Amerika lingvistik hamjamiyati, AQSH; Avstraliya Milliy universiteti, Kanberra); ilk marotaba olam manzarasi, olamning konseptual manzarasi va olam lisoniy manzarasiga doir lingvokulturologik ishlar amalga oshirilgan (Florida, Kaliforniya universitetlari, AQSH); antroponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan (Pekin universiteti, XXR); til birliklarida gender ko‘rsatkichlarning tabiati ochilgan (Kembridj universiteti, Buyuk Britaniya); paremiya hamda frazeologizmlarga xos mental xususiyatlar yoritilgan (Indiana, Vermont universitetlari, AQSH); paremiya va iboralardagi milliy xususiyatlar qiyosiy o‘rganilgan (Graysfald universiteti, Germaniya; Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi Rus tili instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya); qiyosiy-tipologik yondashuvdagi “Umumiy, qiyosiy, amaliy lingvokulturologiya” nomli (Rossiya: Tuva milliy universiteti etnologiya va lingvokulturologiya laboratoriyasi) da “Тезаурус этнической культуры в XXI веке: проблемы исследования и сохранения (на примере тувинской культуры)” № 21-18-00246-raqamli fundamental loyihasi bajarilgan (Rossiya Xalqlar do‘stligi universiteti, RUDN); frazeologizmlar, konstantalar, madaniyatning universal terminlari, lingvokulturemalar tadqiqiga doir ilmiy konsepsiyalar taqdim etilgan (Moskva lingvokulturologik maktabi); o‘xshatishlar, paremiyalar va frazeologik birliklarda milliy-madaniy qadriyatlarning ifodalanishi asoslangan (Qozoq Milliy universiteti, Qozog‘iston); nomlarda inson faoliyatining turli qirralari aks etishidagi lisoniy va nolisoniy omillar belgilangan; Qoraqalpog‘iston qozoqlari etnografizmlari lingvokulturologik jihatdan tahlil etilgan (O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti, O‘zbekiston).

Jahon tilshunosligida lingvokulturologik birliklarni o‘rganish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: milliy-madaniy leksikaning lingvokulturologik lug‘atini yaratish; antroponimlar tizimining tadqiqi asosida insoniyat tafakkur tarzining takomilini ko‘rsatib berish; olam milliy manzarasining lisoniy omillari, ya‘ni lakunalar, realiyalar, paremiyalar, frazeologik birliklarni qiyosiy talqin qilish; qardosh tillardagi gender ko‘rsatkichli birliklar guruhlarining lisoniy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy o‘rganish; o‘xshatishlarning milliy-madaniy etalonini tavsiflash; ramz, stereotiplarning millat ruhiyatini tasvirlashdagi ahamiyatini belgilash; lingvokulturologik kodning onomastik birliklardagi ifodasini aniqlash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda shakllangan nazariyalardan biri bu – til faoliyati va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida hosil bo‘ladigan “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi bo‘lib hisoblanadi. Uni anglatuvchi termin tilshunoslikka ilk marotaba L.Vaysgerber tomonidan tatbiq

etilgan⁵. Bugungi kundagi antropotsentrik tadqiqotlarda olam lisoniy manzarasi tushunchasi markaziy o'rinni ishg'ol etadi. Unga oid dastlabki fikrlar V. fon Gumboldt, M.Blek, M.Xaydegger, S.A.Vasilyev, G.A.Brutyayn, G.V.Kolshanskiy, N.I.Sukalenko, Z.D.Popova, I.A.Sterninlarga tegishlidir⁶. Ularning olam lisoniy manzarasi xususidagi g'oyalari asosida ushbu tushuncha til ilmida yanada ommalashdi.

Lingvokulturologiya termini XX asrning ikkinchi choragida shakllandi. Bu fanning yuzaga kelishida nemis olimi V. fon Gumboldtning xizmatlari kattadir. Til va madaniyat yaxlitligini o'rganuvchi lingvokulturologiyaning ildizlari Yevropada V. fon Gumboldtga, Amerikada F.Boas, E.Sepir, B.Uorflarga borib taqaladi⁷. Shuningdek, ushbu soha takomiliga L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, G.Brutyayn, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi lingvistlar munosib hissa qo'shishgan⁸.

Rossiyada lingvokulturologiya sohasining vujudga kelishida D.K.Zelenin, E.F.Karskoy, A.A.Shaxmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasyev, A.I.Sobolevskiylarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga molik bo'ldi⁹. V.N.Teliya ushbu tarmoqning yanada ravnaq topishida alohida o'rinni egallaydi¹⁰. Shundan keyin N.Arutyunova, Yu.Lotman, A.Vejbitskaya, V.Vorobyov, V.Maslova, G.Tokarev, N.Alefirenko, Z.Sabitovalarning bu soha doirasida olib borgan tadqiqotlari ham qimmatlidir¹¹.

O'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma ustuvor bo'lgan bir qancha maqolalar e'lon qilingan¹². Ayniqsa, N.Mahmudov, Z.Saliyeva, R.Ibragimova,

⁵ Вайсгербер Л. Родной язык и формирование духа. Пер. с нем., вступ. Ст. и коммент. О.А.Радченко. –М.: Едиториал УРСС, 2004. –232 с.

⁶ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. –М.: Прогресс, 1984. –398 с; Блэк М. Метафора / Теория метафоры. –М.: 1990. –С. 153-172; Хайдеггер М. Время картины мира. –М.: Республика, 1993. –448 с; Васильев С.А. Философский анализ гипотезы лингвистической относительности. –Киев: Наукова думка, 1974. –135 с; Брутян Г.А. Языковая картина мира и её роль в познании // Методические проблемы анализа языка. –Ереван: ЕГУ, 1976. –С. 25-32; Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. –М.: Наука, 1990. –103 с; Сукаленко Н.И. Отражение обыденного сознания в образной языковой картине мира. –Киев: Наукова думка, 1992. –164 с; Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. – Воронеж: Истоки, 2002. –60 с.

⁷ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. –М.: Прогресс, 1985. –448 с; Боас Ф. Некоторые проблемы методологии общественных наук // Антология исследований культуры. –СПб., 1997. –Т. I. –С. 499-508; Боас Ф. История антропологии // Этнографическое обозрение, 2002. –№ 6. –С. 86-96; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. –М.: Прогресс, 1993. –340 с; Уорф Б.Л. Лингвистика и логика // Новое в лингвистике. –М., 1980. –С. 183.

⁸ Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. –Москва: “Академия”, 2004. –С. 6.

⁹ Ковшова М.Л. Словарь лингвокультурологических терминов: идея, принципы, схема, опытный образец // Язык, сознание, коммуникация. Сб ст / ред кол. М.В.В.Красных и др. –М.: МАКС Пресс, 2013.

¹⁰ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. –288 с.

¹¹ Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка: культурные концепты. –М.: Наука, 1991. –204 с; Лотман Ю.М. Культура и взрыв. –М.: Гнозис, 1992. –С. 23; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. –М.: Русские словари, 1996. –405 с; Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997. –С. 112; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. –М.: “Академия”, 2001. –208 с; Токарев Г.В. Лингвокультурология. –Тула: Издательство ТГПУ им. Л.Н.Толстого, 2009. –С. 67; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценности-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта: Наука, 2010. –224 с; Сабитова З.К. Лингвокультурология. Учебник. –М.: Флинта: Наука, 2013. –524 с.

¹² Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 5. –Б. 3-16; Худойберганова Д. Ўхшатиш мазмунини ифодаловчи матнлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 6. –Б. 15; Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. –

E.Begmatov, A.Nurmonov, D.Xudoyberganova, D.Yuldashevlar antropotsentrik yoʻnalishdagi ishlarni amalga oshirishgan¹³. Xususan, S.Moʻminov, M.Hakimova, Sh.Safarovlarning tadqiqotlarida aynan lingvokulturologik mohiyat yoritilmagan boʻlsa-da, shunga yaqin sohalar, sotsiolingvistika, lingvopragmatika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik singari yoʻnalishlar tahlil markaziga olingan¹⁴.

Qoraqalpoq til ilmidagi lingvokulturologiya sohasining qamrab olinishi Sh.Abdinazimov nomi bilan bevosita bogʻliq¹⁵. Ushbu tilshunoslikda til va madaniyat uzviyligiga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlib, G.K.Kdirbayeva, G.A.Adilova, Sh.M.Qunnazarova, B.K.Bekniyazov, G.A.Usenova, R.A.Jumamuratovalarning ishlari shular jumlasiga mansub¹⁶. Biroq ularning deyarli barchasida til va madaniyat yaxlitligi masalasi faqat ingliz va qoraqalpoq tillari misolida oʻrganilganligini qayd qilish lozim.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy

Тошкент, 2013. –№ 1. –Б. 3; Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. –№ 3. –Б. 6; Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2017. –№ 6. –Б. 40; Усмонов Ф. Қиёслашнинг олам лисоний манзараси шаклланишидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2017. –№ 6. –Б. 103; Усмонов Ф. Турғун ўхшатишларнинг айрим хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2019. –№ 4. –Б. 51-52; Мусаева Ф. Оламнинг диалектал лисоний манзараси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2018. –№ 4. –Б. 104; Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лақналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами V. –Тошкент: “Akademnashr”, 2018. –Б. 152-156; Худойберганова Д. Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг устувор вазибалари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2020. –№ 5. –Б. 3; Ботирова А. Оламнинг лисоний тасвири ва сўзларнинг функционал ихтисослашуви // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2020. –№ 4. –Б. 120-121.

¹³ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 2010, –25 с; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2011. –№ 3. –Б.19-24; Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Тошкент, 2012; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2013. –№ 3. –Б. 35-39; Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2013. –№ 5. –Б. 10-29; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. –Тошкент, 2015. –36 б; Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дис. автореф. –Тошкент, 2021. –35 б.

¹⁴ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. –Т.: ЎзРФА ТАИ, 2000. –47 б; Ҳакимова М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. –Т.: ЎзРФА ТАИ, 2001. –283 б; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: “Сангзор”, 2006. –92 б.

¹⁵ Abdinazimov Sh., Tolibayev X. Lingvokulturologiya. –Nokis: Qaraqalpaqstan, 2020. –140 b.

¹⁶ Кдырбаева Г.К. “МАН” – “АДАМ” концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2017. –158 б; Адилова Г.А. Қарақалпақстан қазақлари этнографизмлериниң лингвомаданий анализи: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Нукус, 2018. –150 б; Кунназарова Ш.М. Қорақалпоқ халқ эртақларининг лексик-семантик ва лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Нукус, 2021. –24 б; Бекниязов Б.К. Қорақалпоғистон козққлари тилидаги соматик фразеологизмларнинг лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Нукус, 2021. –24 б; Усенова Г.А. “MOTHER/АНА” концепти идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Нукус, 2021. –22 б; Жумамуратова Р.А. Қорақалпоқ ва инглиз тилларидаги лексик-фразеологик лақналар тадқиқи (чоғиштирма аспект): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Нукус, 2021. –20 б.

o'zbek tilshunosligi: nazariy va amaliy masalalar" mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining milliy-madaniy xususiyatlarini lingvokulturologik jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

butun olamdagi har xil ta'sirlar natijasida o'zbek va qoraqalpoq millatining o'ziga xos milliy nigohi shakllanganligini, shu asosda ular tafakkurida muayyan narsa-hodisaning milliy lisoniy manzarasi vujudga kelganligini asoslash;

o'zbek va qoraqalpoqlar milliy mentalitetiga xos urf-odat, an'ana va rasm-rusumlarning tarixiylikka daxldorligini, ular ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan tarbiya natijasi ekanligini belgilash;

o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi lingvokulturologik birliklar talqini jarayonida, asosan, ushbu xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflovchi, tarixiylikni yanada yaqqol ko'rsatadigan leksik, frazeologik, paremiologik birliklarni, turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplarni ajratib olish zarurligini dalillash;

o'zbek va qoraqalpoqlarning asrlar osha ajralmas bir qismi bo'lgan madaniyatning tilda aks etishini tasvirlash asosida leksik sath va madaniy hayot yaxlitligini, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq hodisalar ekanligini ko'rsatish;

gidronimik indikatorlar o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining o'tmishda suv bilan bog'liq manzillarni turfa xil nomlashlariga ko'ra vujudga kelganligini, lakuna va realiyalar esa har qaysi millat mentaliteti darajasining ko'rsatkichi hisoblanishini aniqlash;

o'zbek va qoraqalpoqlar mentalitetiga mansub odob-axloq mezonlari, diniy e'tiqodlar, milliy-madaniy unsurlar nafaqat ular milliy tilining leksik sathida barqarorlik kasb etganligini, shu bilan birga frazeologik, paremiologik birliklarida konsept maqomiga ko'tarilganligini isbotlash;

o'zbek va qoraqalpoq millatining uzoq o'tmishdagi yashash sharoiti, tarixiy kecmishi, turmush tarzi, madaniy merosiga bevosita aloqador qadriyatlar manzarasi o'sha xalqlar milliy tilida turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar orqali voqelanishini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi lingvokulturologik birliklarning qiyosiy talqini tanlangan.

Tadqiqotning predmetini lingvokulturologik birliklar tarkibiga mansub leksik, frazeologik, paremiologik birliklar, shuningdek, turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplarning o'zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy-madaniyatida tutgan o'rnini belgilash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada quyidagi tadqiq metodlari va tahlil usullari qo'llanildi: sinxron-diaxron tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik, komponent tahlil, statistik tahlil, konseptual tahlil.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq tilida bugungi kunda boshqa turkiy tillarda uchraydigan singarmonizm hodisasi saqlanganligi bois, bu xalq o'zbek va qoraqalpoq tillarida parallel qo'llaniladigan muayyan gidronimik indikator tarkibidagi tovushlarni o'z

milliy nigohiga muvofiq tarzda talaffuz etishiga bog'liq ravishda "olam fonetik manzarasi" tushunchasi asoslangan;

o'zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy-madaniyatidan guvohlik beruvchi frazeologizmlar har qaysi millat tafakkur tarzi, urf-odat, an'ana, qadriyatlarini xususida tasavvur hosil qilish imkonini berishi, bu tillarga mansub frazeologik birliklarni til va madaniyat yaxlitligi asosida baholashda dastlab ularga xos antropologik aspekt e'tiborga olinishi lozimligi dalillangan;

paremiyalar o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining mentalitetini, hayot tarzi, urf-odatlari, an'ana-yu qadriyatlarini, har qaysi millat milliy-madaniyatini gavdalantirishi, gender konsept ifodalangan paremiyalardagi tafovut va o'xshashliklar azaldan bu ikki xalq milliy nigohi, tasavvur va tafakkuri, olam manzarasini lisonida o'ziga xos tarzda tasvirlashi bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan;

o'zbek va qoraqalpoq tillarining antropotsentrik tabiatini tavsiflashda tarixiylikka daxldor, o'sha xalqlar milliy-madaniy qadriyatlariga taalluqli turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar juda muhim vositalar sanalishi, ularda har qaysi millat mentalitetiga xos xususiyatlar yashiringanligi, ular o'zbek va qoraqalpoqlarning o'tmish davrlardagi milliy nigohini aks ettirishi asoslangan;

o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi leksik, frazeologik va paremiologik birliklarning mohiyatini anglash, bu tillar haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun ularni madaniyatlararo hamkorlik asosida qiyoslash muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

lingvokulturologik birliklarning qiyosiy talqini yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar hamda ishda foydalanilgan lisoniy materiallar o'zbek va qoraqalpoq tilshunosligida lingvokulturologiya sohasi taraqqiyoti uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar bergan, bu fanning yangi tushunchalar bilan boyishini ta'minlab, qardosh tillar lingvokulturologik birliklarini tahlil etishdagi ilmiy qarashlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan;

dissertatsiya materiallari o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining azaliy dunyoqarashi, tafakkuri, o'y-xayollari, yashash tarzi, urf-odatlari, diniy e'tiqodi, umuman, milliy qadriyatlarini yanada chuqurroq anglab olish imkonini bergan, asosan, kelajakda bu ikki qardosh xalq tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik lug'atini tuzishda muhim manba hisoblangan;

tadqiqotning ilmiy va nazariy xulosalari sohada olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida "Lingvokulturologiya", "Onomastika", "Sotsiolingvistika" fanlaridan o'quv qo'llanmalarini yaratish uchun xizmat qilishi, shuningdek, lingvokulturologik birliklarni o'rganuvchi tadqiqotchilarga ilmiy asos vazifasini o'tashi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tadqiqot metodologiyasi asosida shakllantirilganligi, ilmiy-nazariy mulohazalarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan materiallar hajmining salmog'i, sinxron-diaxron tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik, komponent tahlil, statistik tahlil, konseptual tahlil metod va usullaridan foydalanilganligi, ushbu sohaga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar nazariy xulosalarining dissertatsiya nazariy holatiga muvofiq kelishi, qayd qilingan

fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvokulturologik birliklar qiyosiy talqiniga doir mavjud nazariy bilimlarni yangi qarashlar bilan boyitishga hissa qo‘shishi; genetik jihatdan bir-biriga qarindosh tillarni madaniyatlararo hamkorlik asosida tadqiq etishga qaratilgan ishlar uchun istiqbolli yo‘nalish ochib berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta‘lim tizimida o‘zbek va qoraqalpoq tillarida mavjud manbalarni boyitish maqsadida lingvokulturologiyaga oid lug‘atlar tuzishdagi, o‘zbek va qoraqalpoq tillariga mansub frazeologik birliklarning etimologik lug‘atini yaratishdagi, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari filologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalariga lingvokulturologiyaga oid ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilishdagi samaradorligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi lingvokulturologik birliklar talqini bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi leksik, frazeologik va paremiologik birliklarning mohiyatini anglash, bu tillar haqida to‘laroq ma‘lumotga ega bo‘lish uchun ularni madaniyatlararo hamkorlik asosida qiyoslash muhim ahamiyat kasb etishi va kutilgan natijani berishiga doir nazariy ma‘lumotlardan Erasmus + dasturining 561574-EPP-1-2015-1-ES-EPPKA2 – CBHE-JP – ECCUM: “Establishment of Computing Centers and Curriculum Development in Mathematical Engineering Master programme” grant loyihasida foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2023-yil 16-maydagi 06-103/1-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqotda keltirilgan nazariy xulosalar mazkur loyihani boyitishga yordam bergan, ushbu grant ilmiy bazasining yanada mukammal bo‘lishi uchun xizmat qilgan;

qoraqalpoq tilida bugungi kunda boshqa turkiy tillarda uchraydigan singarmonizm hodisasi saqlanganligi bois, bu xalq o‘zbek va qoraqalpoq tillarida parallel qo‘llaniladigan muayyan gidronimik indikator tarkibidagi tovushlarni o‘z milliy nigohiga muvofiq tarzda talaffuz etishiga bog‘liq ravishda “olam fonetik manzarasi” tushunchasiga oid lisoniy materiallardan 2015-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-A1-G004-raqamli “Qoraqalpoqlar tasavvurida ayol timsoli: etnologik tadqiqotlar” nomli amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 14-iyundagi 254/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari qoraqalpoq xalqi mentalitetida ayol timsoliga oid o‘ziga xos tasavvurlarning qaror topganligi, shunga doir tadqiqot ishlarining amalga oshirilganligi xususidagi yangi manba va ma‘lumotlar bilan yanada boyigan;

o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy-madaniyatidan guvohlik beruvchi frazeologizmlar har qaysi millat tafakkur tarzi, urf-odat, an‘ana, qadriyatlari xususida tasavvur hosil qilish imkonini berishi, bu tillarga mansub frazeologik birliklarni til va madaniyat yaxlitligi asosida o‘rganishda dastlab ularga xos

antropologik aspekt e'tiborga olinishi lozimligi haqidagi nazariy masalalardan 2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003-raqamli "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 14-iyundagi 255/1-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot materiallari o'zbek va qoraqalpoq tilshunosligida lingvokulturologiya sohasi taraqqiyoti uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar bergan;

paremiyalar o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining mentalitetini, hayot tarzi, urf-odatlarini, an'ana-yu qadriyatlarini, har qaysi millat milliy-madaniyatini gavdalantirishi, gender konsept ifodalangan paremiyalardagi tafovut va o'xshashliklar azaldan bu ikki xalq milliy nigohi, tasavvur va tafakkuri, olam manzarasini lisonda o'ziga xos tarzda tasvirlashi bilan bevosita bog'liqligi borasidagi nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-A1-G004-raqamli "Qoraqalpoqlar tasavvurida ayol timsoli: etnologik tadqiqotlar" nomli amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 14-iyundagi 254/1-son ma'lumotnomasi). Natijada realiyalarni qardosh tillar va ularning madaniyatlararo hamkorligi asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan;

o'zbek va qoraqalpoq tillarining antropotsentrik tabiatini tavsiflashda tarixiylikka daxldor, o'sha xalqlar milliy-madaniy qadriyatlariga taalluqli turg'un o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar juda muhim vositalar sanalishi, ularda har qaysi millat mentalitetiga xos xususiyatlar yashiringanligi, ular o'zbek va qoraqalpoqlarning o'tmish davrlardagi milliy nigohini aks ettirishi xususidagi qarashlardan Qoraqalpog'iston televideniyesining "Assalomu alaykum, Qoraqalpog'iston" ko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlash jarayonida samarali foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 31-maydagi 05-22/285-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlarning materiallari mazmun jihatdan yanada mukammallashgan, ularning ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 42 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan 1 ta monografiya, 22 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr etish tavsiya qilingan nashrlarda, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 257 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Olam lisoniy manzarasi lingvokulturologik tadqiqotlar markazida”** deb nomlangan bo‘lib, u to‘rt bo‘limdan iborat. Bobning *“Olam lisoniy manzarasiga lingvistik ta‘rif”* deb atalgan dastlabki bo‘limi tilshunoslikda keyingi vaqtlarda tilni tavsiflashning bir qancha yo‘nalishlari yuzaga kelganligi, shu asosda yangicha nazariy talqinlar shakllanganligi, ana shunday nazariyalardan biri til faoliyati va tafakkur o‘rtasidagi aloqadorlik natijasida hosil bo‘ladigan “olaning lisoniy manzarasi” tushunchasi hisoblanishi xususidagi mulohazalarni o‘zida jamlagan. M.Xaydeggerning qayd qilishicha, “manzara” deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, ya‘ni olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi¹⁷. Butun olamning tildagi manzarasi borasidagi izlanishlar V. fon Gumboldt, M.Blek, M.Xaydegger, S.A.Vasilyev, G.A.Brutyani, G.V.Kolshanskiy, N.I.Sukalenko, Z.D.Popova va I.A.Sterninlarga tegishli¹⁸. Ularning tadqiqotlari, asosan, morfologiya va filosofiya qamrovida olib borilgan. Ana shu lingvistlarning olam lisoniy manzarasiga doir g‘oyalari natijasi o‘laroq ushbu tushuncha tilshunoslikda yanada ommalashgan.

Bugungi kunda tilshunoslarning qayd etishicha, millat tilida tilning barcha o‘ziga xosliklari, dunyoga munosabat, xalq urf-odatlarini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, turli xil tilda muloqotga kirishuvchi, turli madaniyat egalari butun olamni turlicha idrok etadi¹⁹. Dunyodagi tillarning turfa xilligiga bog‘liq ravishda olamning lisoniy manzarasi rang-barangdir. Qadriyatlar olam lisoniy manzarasini kishilar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

Olam lisoniy manzarasi N.Mahmudov talqiniga ko‘ra, tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilda barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlari bilan birga dunyoni anglash va bo‘laklash usullarining jamidir²⁰. Darhaqiqat, inson o‘zining sezgi a‘zolari bilan, tafakkur qurolini ishga solib olamni

¹⁷ Хайдеггер М. Время картины мира. –М.: Республика, 1993. –С. 72.

¹⁸ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. –М.: Прогресс, 1984. –398 с; Блэк М. Метафора / Теория метафоры. –М.: 1990. –С. 153-172; Хайдеггер М. Время картины мира. –М.: Республика, 1993. –448 с; Васильев С.А. Философский анализ гипотезы лингвистической относительности. –Киев: Наукова думка, 1974. –135 с; Брутян Г.А. Языковая картина мира и её роль в познании // Методические проблемы анализа языка. –Ереван: ЕГУ, 1976. –С. 25-32; Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. –М.: Наука, 1990. –103 с; Сукаленко Н.И. Отражение обыденного сознания в образной языковой картине мира. – Киев: Наукова думка, 1992. –164 с; Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. – Воронеж: Истоки, 2002. –60 с.

¹⁹ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. –М.: Прогресс, 1993. –340 с.

²⁰ Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. –№ 3. –Б. 6.

anglaydi, kuzatish, bilish, idrok etish, axborotni ongda qayta sintezlash orqali olam haqidagi tasavvurlar majmuini yaratadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi *“Xorijda lingvokulturologiyaga oid qarashlar”* deb atalgan. XXI asrga kelib tilshunoslik sohasi yanada jadal sur‘atlarda taraqqiy etib, bu ilm yangidan-yangi muammoli masalalarning yechimini izlash, ularni hal qilish vazifalarini kun tartibida belgilab berdi. Umumtilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning bir qancha tarmoqlari vujudga kelib, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, lingvopragmatika, pragmalingvistika, lingvokulturologiyada inson omili barcha tadqiqotlar markazida bo‘ldi. Ularda tilni uning egasi inson bilan uzviy ravishda bog‘lab o‘rganishga harakatlar boshlandi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlari qatorida lingvokulturologiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida paydo bo‘ldi. U tilning madaniyat bilan aloqasi va ta‘sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o‘rganadi. Bu soha XX asr oxirida yuzaga kelgan bo‘lib, ilk bor *“lingvokulturologiya”* termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlarga bog‘liq holda qo‘llanildi.

Til qurilishida xalqlarning milliy mental xususiyatlari aks etishi sababli lingvist V. fon Gumboldt bundan qariyb ikki asr ilgari har qaysi tilning o‘z tizimi mavjudligini, tilni tadqiq etishni, qaysi maqsadda bo‘lishidan qat‘iy nazar, shundan boshlash kerakligini qayd qilgan edi²¹. Uning nazariy qarashlari ta‘sirida XIX asrning ikkinchi yarmida A.A.Potebnya til va xalq ruhiyatining aloqadorligini o‘rgandi. U tilni madaniyat va xalq ma‘naviy dunyosining tashkil etuvchisi sifatida baholadi. XX asrga kelib amerikalik lingvist E.Sepir o‘z tadqiqotlarida til va madaniyat mushtarakligini yangicha talqinda tavsifladi. Uning fikricha, til madaniyatdan uzilgan holda yashamaydi. Til – xalq madaniyatining ko‘rsatkichi. Chunki uning leksikasida ma‘lum darajada o‘zi xizmat qilayotgan xalqning madaniyati aniq tasvirlangan bo‘ladi²². XX asrning so‘nggi choragida *“til – madaniyat mahsuli”* ta‘rifi yetakchilik qildi. Aslida ham shunday. Til madaniyatning mahsuli hisoblanadi. Tilning ajdodlardan yetib kelgan madaniyatni saqlab, keyingi avlodlarga yetkazishda vorisiylikni ta‘minlashi, jamiyat va millatning rivoji uchun muhim vazifani bajarishi istisnosiz.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi *“O‘zbek tilshunosligida til va madaniyat aloqadorligi tadqiqi”* deb nomlangan. O‘zbek tilshunosligida professor N.Mahmudov e‘tirof etganidek, antropotsentrizm faqat til tadqiqiga nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, balki tilning mohiyatiga daxldor hodisadir²³. Antropotsentrik tadqiqotlarda tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish nazarda tutiladi. Chunki til tizimini inson omili bilan yaxlit holda tadqiq etish natijasida turli xalqlar tillarining milliy-madaniy xususiyatlari ochiladi. Bu haqida

²¹ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. –М.: Прогресс, 1985. –448 с.

²² Сепир Э. Ко‘rsatilgan manba. –С.194.

²³ Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. – № 5. –Б. 3-16.

D.Xudoyberganova shunday fikr bildirgan edi: “Tilni antropotsentrik tadqiq qilish muayyan xalqning milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi”²⁴.

Qayd qilinishicha, chindan ham har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham “milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy tuyg‘u” degan oddiy tushunchalar, ming yillardir, odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. Tilning mohiyati, vazifasi, ko‘pincha, benihoya jo‘n talqin etiladi. Go‘yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko‘plab vazifalaridan bittaginasini xolos. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda, tilning ruhiy, estetik hodisa ekanligini ham unutmash kerak²⁵. Haqiqatan ham, dunyodagi har bir millat olamni o‘ziga xos tarzda ko‘radi, tafakkuri orqali idrok etadi. Shu asosda borliqdagi sir-sinoatlar haqida inson ongida tasavvur hosil bo‘ladi.

Tilshunos Sh.Safarovning til va madaniyat haqidagi fikri ham e‘tiborga loyiq: “Har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma‘lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkuri va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks etishi tabiiydir”²⁶. Darvoqe, kishilar nutqida qo‘llaniladigan leksik, frazeologik, paremiologik yoki boshqa birliklar ularning qay darajada nutq madaniyatini egallaganligini tasdiqlaydi. Bunda insonning nutq madaniyatiga u yashab turgan, istiqomat qilayotgan jamiyat, muhitda barqarorlashgan madaniyat bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar til va madaniyat mushtarakligi tavsifiga bag‘ishlangan bir qator ishlar vujudga kelgan. Ularda til va madaniyat uzviyligi masalasining faqat u yoki bu tomoni e‘tiborga olingan bo‘lishiga qaramay, ular til ilmi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Ushbu bobning to‘rtinchi bo‘limi “*Qoraqalpoq til ilmida lingvokulturologiyaning ustuvor vazifalari*” deb atalgan. Qoraqalpoq tilshunosligida lingvokulturologiya endigina shakllanib kelayotgan, nisbatan yosh soha hisoblanadi. Bu sohaning qoraqalpoq til ilmida qamrab olinishi, tadqiqot ishlarining yuzaga kela boshlashi XXI asrning dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi. Lingvokulturologiyaning qoraqalpoq tilshunosligiga kirib kelishi va bu boradagi tadqiqot ishlarining jadallik bilan boshlanishi professor Sh.Abdinazimov nomi bilan bevosita bog‘liq²⁷.

XXI asr boshlarida qoraqalpoq tishunosligida lingvokulturologiya sohasiga doir tadqiqotlar, asosan, qiyosiy aspektda amalga oshirilganligini ta‘kidlash kerak. Bu ishlarda asosiy e‘tibor lingvokulturologik birliklar talqiniga qaratilgan.

²⁴ Худойбергано́ва Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. –Тошкент, 2015. –Б. 5.

²⁵ Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. –Б. 10.

²⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: “Сангзор”, 2006. –Б. 65.

²⁷ Abdinazimov Sh., Tolibayev X. Lingvokulturologiya. –Nokis: Qaraqalpaqstan, 2020. –140 b.

Masalan, G.K.Kdirbayevaning dissertatsiyasi “MAN” – “ADAM” konseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)” deb ataladi²⁸. G.A.Adilovning dissertatsiyasi “Qoraqalpog‘iston qozoqlari etnografizmlarining lingvomadaniy tahlili” deb nomlangan bo‘lib, unda tilshunoslikda ilk bor Qoraqalpog‘iston qozoqlarining etnografizmlari shu hududda yashab kelayotgan xalqlarning moddiy va ma’naviy madaniyati, turmush tarzi, milliy urf-odat va qadriyatlarini o‘zida ifodalovchi dialektal leksik qatlam ekanligi isbotlab berilgan²⁹.

Sh.M.Kunnazarovning dissertatsiyasida qoraqalpoq xalq ertaklari tili maxsus lingvokulturologik yo‘nalishda o‘rganilgan³⁰. B.K.Bekniyazov dissertatsiyasida Qoraqalpog‘iston qozoqlari tilidagi somatik frazeologizmlar tadqiq qilingan³¹. R.A.Jumamuratova o‘z dissertatsiyasida qoraqalpoq va ingliz tillaridagi leksik va frazeologik lakunalarni o‘rganishni ma’qul ko‘rgan³². “MOTHER/ANA” konseptli identifikatorlarining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida)” deb nomlangan dissertatsiya G.A.Usenova tomonidan himoya qilingan bo‘lib, unda qiyoslanayotgan madaniyatlardagi “Mother/Ana” konseptining lisoniy va madaniy voqelanish holatlari, lisoniy birliklar verballashuvi, konsept identifikatorlarining lingvistik tabiati va milliy olam manzarasi antropotsentrik nuqtayi nazardan yoritilgan³³.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasida mentalitetga xos xususiyatlar aksi”** deb nomlangani holda u o‘zida beshta bo‘limni birlashtiradi. Dastlabki *“Til va mentalitet tushunchalari mushohadasi”* bo‘limida mentalitet tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda berilgan ta’riflar keltirilgan va ular sharhlangan. Binobarin, mentalitet bu – jamiyatning har bir a’zosi his-tuyg‘ulari, ongi va shuuri, irodasida namoyon bo‘ladi. U tilga, tarbiyaga asoslanadi. Shu tariqa, milliy madaniyatning bir qismini tashkil etadi. Zero, madaniyatning milliy xususiyati uning qadimdan meros bo‘lib kelayotgan urf-odatlarida, xalq mentalitetida ko‘zga tashlanadi. Mentalitet tarixiylikka ega bo‘lib, asrlardan asrlarga, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan tarbiya natijasidir.

Til va mentalitetning doimiy hamrohligi haqiqat. Ular hamisha “til – mentalitet” va “mentalitet – til” mexanizmi asosida ish ko‘radi. Til orqali xalqlarning mentalitetiga xos xususiyatlar ta’rif-u tavsiflanadi. Bu haqida so‘z yuritilishicha, mentalitet verbal va noverbal voqelanadi. Uning avloddan-avlodga o‘tishi – vorisiylik mexanizmi ham shunday. Agar noverbal voqelanish xalqning urf-odatlarini, an’analari, e’tiqodi, san’ati bilan bo‘lsa, verbal voqelanish til orqali kechadi³⁴.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida kattaga hurmat – kichikka izzatda bo‘lish azaliy qadriyat, ular qon-qoniga singib ketgan odatdir. Xoh katta yoki xoh kichik

²⁸ Кдырбаева Г.К. Ко‘rsatilgan ish. –158 б.

²⁹ Адилова Г.А. Ко‘rsatilgan ish. –150 б.

³⁰ Кунназарова Ш.М. Ко‘rsatilgan ish. –24 б.

³¹ Бекниязов Б.К. Ко‘rsatilgan ish. –24 б.

³² Жумамуратова Р.А. Ко‘rsatilgan ish. –20 б.

³³ Усенова Г.А. Ко‘rsatilgan ish. –22 б.

³⁴ Одилов Ё. Тил ва менталитет // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2021. –№ 3. –Б.44.

yoshdagi kishi bo'lsin, bir-biriga mudom shunday mulozamat ko'rsatishga harakat qilishadi, hurmat-e'tibori ziyodaligini namoyish etishadi. Mentalitetlar o'rtasidagi ushbu fazilat o'zbek va qoraqalpoq tillarida samimiyat bilan "*Assalomu alaykum*" // "*Assalawma áleykum*" deb yuzlanishda o'z ifodasini topadi. Shu jumlaning o'zi bu ikki qardosh millat mentalitetidan, qiyofasidan darak beradi. Shuningdek, mehmonlar o'tirgan xonaga madaniyatli kishining kirib kelishi, ularga salom berishi holatini kuzatadigan bo'lsak, u eshikdan qaddini sal eggan, qadamlarini maydalagan holda, o'ng qo'lini chap ko'ksi ustiga qo'yib, boshini egib, yengilgina ta'zim bilan "assalomu alaykum" deydi³⁵. Qoraqalpoq xalqida xonaga kirgan har bir kishi o'zining samimiyatini ifodalash maqsadida mehmonlarning har qaysisi bilan qo'l berib salomlashishi odat sifatida shakllangan. Bu o'rinda tasvirlangan har bir verbal va noverbal holatdagi ifoda o'zbek va qoraqalpoq xalqlari mentalitetining ajralmas qismidir.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi "*Leksikada tillararo va madaniyatlararo munosabatlar tasviri*" deb nomlangan. Til sathida leksika markaziy figura hisoblanadi. Frazelogik, paremiologik birliklar, o'xshatish, ramz va stereotiplar zahirida leksika mujassam bo'lib, bu birliklar leksik sathdan shakllangan, undan o'sib chiqqanligi ayon. Tavsifga ko'ra, har bir til leksikasi tildan tashqari borliqni o'zicha, batamom o'ziga xos, boshqa tillardagidek bo'lmagani kabi tasnif etadi³⁶. To'g'ri, har qanday til leksikasi voqelikni o'ziga xos va mos tarzda ifodalash xususiyatiga ega. Ana shunday jarayonda muayyan til leksikasining etnomadaniy tabiati yorqin namoyon bo'ladi. Ma'lum millatga ixtisoslashgan leksikadan foydalanuvchi faqat o'sha millat, xalqning o'zi bo'lganligi bois, uning sohibi ham xalqdir.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida har bir millat madaniyatini ta'riflashga xoslangan, takrorlanmas, biri ikkinchisiga aynan muvofiq kelmaydigan so'zlar ham uchraydi. Bu esa tillararo va madaniyatlararo tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida **qarindosh** 1. Bir avlod-ajdodga mansub bo'lgan kishilar, ota va ona tomonidan bo'lgan shaxslar (biri boshqasiga nisbatan). *Ota tomonidan qarindosh. Uzoq qarindosh. Yaqin qarindosh. Chatishgan qarindosh. Qadr bilmas qarindoshdan qadr bilgan yot yaxshi* (Maqol) deb izohlangan [ЎТИЛ – 5: 249]. Qoraqalpoq tilida **qarindas** 1. Bir onadan tug'ilgan, o'zidan kichik qiz, tug'ishgan qiz. *Erjanni qarindasin uzatip jiberiw biydiñ moynında* (K.Sultanov). 2. Qizlarga yoshi katta kishilarning aytadigan so'zi, murojaati mazmunini bildiradi [QTTS – III: 138-139]. Oltoy, ozarbayjon, turkman tillarida *qarindosh* yoki *qardosh* "aka, uka" ma'nolarini anglatasa, qozoq, qirg'iz tillarida "o'zidan kichik singil" ma'nosini ifodalaydi³⁷. Demak, fonetik jihati hisobga olinmaganda, shaklan bir xillikka ega bu so'z o'zbek va qoraqalpoq tillarida tamoman boshqa-boshqa ma'nolar talqiniga ega. Ana shu o'rinda bir-biriga yaqin bo'lgan bu xalqlarning

³⁵ Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. –Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2007. –Б. 10.

³⁶ Мельчук И.А. Курс общей морфологии. Том I. –Москва-Вена: Языки русской культуры. Венский славистический альманах. Изд. группа "Прогресс", 1997. –С. 266.

³⁷ Казаков И.Р. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида от ясовчи кўшимчаларнинг киёсий функционал-семантик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2011. –Б.35.

milliy-madaniy nigohida tafovut mavjudligini, ularning shu bitta soʻz orqali olam manzarasini turli xil anglashi va lisonda aks ettirishiga doir tushunchaga ega boʻlish mumkin.

Ikkinchi bobning uchinchi boʻlimida “*Gidronimik indikatorlar – milliy tafovutlar ifodachisi*” mavzusi yetakchilik qiladi. Hidronimlar tarkibida qoʻllanilib, nom ifodalayotgan obyektning qanday suv obyeksi va inshooti ekanligini anglatuvchi lugʻaviy birliklar gidronimik indikatorlardir³⁸. Indikator – “termin, darakchi termin”; (lotincha indicator – “koʻrsatkich”) – toponim tarkibida uchraydigan va uning turini koʻrsatib turadigan termin: *togʻ, choʻl, daryo, quduq, jar* va boshqalar. *Qoratogʻ, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Uzunquduq, Qiziljar*³⁹. Qoraqalpogʻistonda Orol dengizi, Amudaryo bilan birga *kól, dárya, arna, izeykesh, aydín, qudiq, jap, salma* kabi bir qancha suv obyektlari mavjud⁴⁰. Bularning oʻzi joʻgʻrofiy nomlar yoki gidronimlar boʻlsa, ularga til birliklarining qoʻshilishi natijasida *Ámiwdárya, Maqsımqudiq, Tentek jap* kabi yangi gidronimlar hosil boʻlgan⁴¹. Bunday, yaʼni *kól, dárya, arna, izeykesh, aydín, qudiq, jap, salma* singari suv obyektlarini izohlovchi nomlarni “gidronimik indikatorlar” deb atash maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbek va qoraqalpoq xalqlari orasida milliy-madaniy xususiyatlari yanada boʻrtib turgan *jasqa, izeykesh, jıqqın, qaq, oy, ózek/ózen, salma, jap, sağa, jarmıs/jarğan* singari gidronimik indikatorlar tadqiq qilinishi davomida tilshunoslikdagi “olam lisoniy manzarasi” tushunchasi “olam fonetik manzarasi” tarzida qoʻllanilgan. Chunki olam manzarasi nafaqat lisondagi leksikada, balki dastlab leksik sath takomilining tirgagi boʻlgan fonetikada yaqqol koʻzga tashlanadi. Zero, olamning lisoniy tasviri haqida gap ketganda, koʻproq leksika va frazeologiya boʻyicha fikrlar bildiriladi-yu, grammatika va fonetika nazardan chetda qoladi. Holbuki, til yaxlit tizim ekan, olamning lisoniy matritsasi, modeli sifatidagi til fonetik va grammatik vositalarsiz ushbu manzarani hosil qila olmaydi⁴². Qardosh tillardagi lingvokulturologik birliklar talqini jarayonida leksika va fonetikaning chambarchas bogʻliqligi, ularning biri ikkinchisidan ajralmas hodisalar ekanligini anglash mumkin. Chunki oʻzbek va qoraqalpoq xalqlari kelib chiqishiga koʻra bir oʻq ildizni shakllantiradi. Ular uzoq asrlar mobaynida bir hududda yonma-yon yashab kelishadi. Oʻtmish davrlardan boshlab shu bugungacha ularning oʻz milliy-madaniyati shakllangan. Bunda har bir xalqning milliy nigohi, tasavvur va tafakkuri, dunyoni anglashi muhim rol oʻynagan.

Bobning toʻrtinchi boʻlimida “*Lakunalarda milliy madaniyat manzarasi*” mavzusi yoritilgan. Lakuna termini ilk bor XX asrning ikkinchi yarmidan soʻng kanadalik tilshunoslar J.P.Vine hamda J.Darbelnelar tomonidan ilmiy hayotga

³⁸ Улуков Н. Туркий тиллардаги параллел гидронимик индикаторлар хусусида // Туркология. –Қозоғистон, 2018. –№ 1. –Б. 82.

³⁹ Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. –Тошкент: Ozbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –Б. 213.

⁴⁰ Мамбетова Г.Ж. Қарақалпақстанның арқа районлары гидронимлери: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Нукус, 2018. –Б. 14.

⁴¹ Оʻsha ish. –Б. 29.

⁴² Ботирова А. Оламнинг лисоний тасвири ва сўзларнинг функционал ихтисослашуви // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2020. –№ 4. –Б. 120-121.

tatbiq etilgan. Ushbu olimlar lakunaga quyidagicha ta'rif berishgan: "Bir tildagi soʻzning boshqa tilda muqobilini topa olmagan oʻrinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi"⁴³. Shundan keyin mazkur masala bilan jiddiy shugʻullangan V.G.Gak lakunalarni "tilning leksik tizimidagi boʻshliqlar, bor boʻlishi kerakdek koʻringan soʻzlarning mavjud emasligi", deb izohlagan⁴⁴. Bu fikrga shunday aniqlik kiritish mumkinki, lakuna bu – maʼlum jamiyatda biror tushunchaning mavjudligi, ammo uni toʻliq aks ettiruvchi soʻz oʻrnining boʻshligi, boshqa tilda esa ana shu tushunchani ifodalaydigan soʻzning borligi, oʻsha til leksik sathida barqarorlashganligidir.

Oʻzbek tilida fors-tojik tiliga xos **gashtak** soʻzi juda kamdan-kam hollarda oddiy soʻzlashuv nutqida ishlatiladi. Uning vazifasi "oʻyin-kulgi, bazm" tushunchasini ifodalashdir. Bu soʻz *gasht* otiga kichraytirish-erkalash maʼnosini ifodalaydigan *-ak* qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, "ixcham bazm" degan mazmunga ega. Odatda u *gap-gashtak* juft oti tarkibida ishlatiladi. Aslida, *gasht* koʻp maʼnoli boʻlib, tojikcha otning "sayr qilish" mazmuni asosida oʻzbek tilida "estetik zavq" maʼnosi yuzaga kelgan. *Har bir kasb-hunarning oʻz gashti bor* kabi. Bu ot bilan oʻzbek tilida "*gashtini sur*" iborasi tuzilganligini qayd qilish kerak [ЎТЭЛ – 3: 61]. Qoraqalpoq tilida **geshtek** "yigʻilish tashkil etib, koʻpincha kechqurungi paytlarda toʻplanishib, ovqat pishirib, vaqtni xushnud oʻtkazishga moʻljallangan oʻtirish, yigʻin" deb izohlangan [QTTS – III: 21]. Demak, bu oʻrinda *gashtak // geshtek* soʻzlari har ikki tilda mazmunan nomuvofiqlikni shakllantiradi.

Oʻzbek tilidagi *gashtak* ifodalaydigan "estetik zavq" tushunchasi qoraqalpoq tilida ham mavjud. Ammo u boshqa soʻzlar vositasida anglashiladi. Shundan kelib chiqib, ushbu soʻz oʻzbek tili uchun lakuna hodisasini vujudga keltiradi, deyishga haqlimiz. Sababi qoraqalpoq xalqida *geshtek* soʻzi oʻziga xos milliy-madaniy tarixiga ega. Qoraqalpoqlarda azaldan qiz-yigitlarni sinash odatlari qaror topgan. Ayniqsa, yoshlarni tarbiyalab, ular qalbida milliy-madaniy urf-odatlariga sodiqlik tuygʻularini shakllantirish bolalik chogʻlaridan-oq boshlangan. Bu yoʻnalishda qizlarning yangalari (*jeʼnge*) va yigitlarning akalari (*jigit aʼgasi*) katta vazifani ado etishgan. Bolalar besh yoshligi davridan boshlab yigʻinlarda ishtirok etishib, oʻtirish-turish, oʻzini aqlli va farosatli tuta bilish sir-sinoatlarini oʻrganishgan. Buning uchun qishloqlarda *geshteklar* (yaʼni, har kim topganini oʻrtaga qoʻyadigan ziyofatlar) tashkil qilingan [QET: 150].

Mazkur bobning oxirgi beshinchi boʻlimi "*Realiyalarda madaniyatlararo xususiylik belgisi*" deb nom olgan. Ilmiy manbalarda realiyalarga turli xil munosabat bildirilgan. Aslida, *realiya* – yunoncha "realia" soʻzidan olingan boʻlib, u "ashʼyoviy, haqiqiy" degan maʼnoni ifodalaydi⁴⁵. Lingvist L.S.Barxudarovning realiyalarga bergan taʼrifi bir qadar mufassalligi bilan ajralib turadi. Unga koʻra, realiyalar shunday soʻzlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida,

⁴³ Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –P. 10.

⁴⁴ Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л.: "Просвещение", 1976. –С. 261.

⁴⁵ Садиқов З. Қадимги туркий реаліялар таржимаси. Монография. –Наманган: "Vodiy Media", 2021. –Б. 6.

amaliy hayotlarida mavjud bo‘lmagan leksik birliklar hisoblanadi⁴⁶. Umuman, realiyalar tillarni qiyoslash jarayonida aniq ko‘zga tashlanadigan, tillararo tafovutlanadigan, muayyan xalq maishiy hayoti va milliy-madaniyatiga xos tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlar va an‘analarni ifodalaydigan nomlarning tabiiy ravishda boshqa xalqlar ijtimoiy hayot tarzida mavjud emasligidir.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining milliy kiyimlari va zargarlik buyumlari moddiy va ma‘naviy yodgorliklar ichida o‘sha xalqlarning o‘ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilarini ham ko‘rsatib turadi. Ularda takrorlanmas joziba-yu nafosat, inson umrining fasllari bilan bog‘liq urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlardagi tafovutlar, diniy e‘tiqodlar namoyon bo‘ladi. Qoraqalpoq xotin-qizlarining milliy madaniyatini o‘zida yorqin gavalantiruvchi kiyimlardan biri **sáwkele** bo‘lib hisoblanadi. U ayollar kiygan bosh kiyimlarning eng qadimiysidir. Uning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, faqat qoraqalpoqlar orasida tarqalishi ko‘pchilik olimlar diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qilib keladi [QET: 120]. Qoraqalpoq *sáwkelesi* marvarid va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tantanavor bosh kiyimdir. Uni dastlab XIX asrdagi o‘ziga to‘q, boy xonadonning qizlari nikoh marosimlarida kiyishgan. Bu bosh kiyim kelinchakning yuqori darajadagi maqomini mehmonlarga ko‘z-ko‘z qilishga xizmat qilgan.

O‘zbek milliy kiyimlari orasida boshqa xalqlarda uchramaydigan **munisak** (**mursak**) deb ataluvchi ayollarning o‘ziga xos ustki libosi bo‘lgan. Uning bichimi an‘anaviy to‘n va ko‘ylaklar bilan deyarli bir xillik kasb etsa-da, ularda yoqa bo‘lmagan. *Munisak*ning qo‘ltiq ostidagi yon qismlari qat-qat yig‘ilib turgan. Shuningdek, *munisak* hamma joyda ham kiyilmagan. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona vodiysi va Xorazmda keng tarqalgan. Avvallari *munisak* to‘y, marosim liboslari sanalgan. Ammo XIX asr oxirlariga kelib u motam, aza libosiga aylangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘zbek va qoraqalpoq tillarida frazeologik va paremiologik birliklar konseptual tahlili**” deb atalgan bo‘lib, u besh bo‘limdan tashkil topgan. Dastlabki “*Konsept – olam manzarasining mazmuniy birligi*” bo‘limida konseptning ifoda imkoniyatlari tushunchaga nisbatan ancha kengligi xususida so‘z boradi. Konsept termini A.Vejbitskaya, Yu.S.Stepanov, R.M.Frumkina, E.S.Kubryakovalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u zamonaviy tilshunoslikda faol qo‘llanilyapti. Ammo umumtilshunoslikda ushbu terminga berilgan mukammal ta‘rif mavjud emas. Buning sababi shuki, konsept fikrlashga oid va kuzatilmaydigan kategoriyadir, shunga ko‘ra uni turfa xil talqin etish mumkin⁴⁷.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida ular milliy-madaniyatini, dunyoqarashini aks ettirishga xoslangan, har qaysi millat mentalitetida konsept sifatida e‘tirof etishga loyiq madaniyat unsurlari mavjud. O‘zbek xalqining milliy bosh kiyimlaridan **do‘ppi** ana shunday xususiyatga ega. O‘zbek tilida *do‘ppi* tushunchasi “avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan

⁴⁶ Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. –М.: Международные отношения, 1975. –С. 95.

⁴⁷ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. –М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. –С. 29.

guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shaklidagi bosh kiyim”ni ifodalaydi. *Bahmal do‘ppi. Gilam do‘ppi. Hoji do‘ppi. Chust do‘ppi. Zar do‘ppi. Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* (Maqol) [ЎТНЛ – 1: 676]. Xalqimizda *do‘ppi* shunchaki bosh kiyimi hisoblanib qolmasdan, u o‘zbek xalqining butun o‘tmishi, milliy qiyofasi, tarixini o‘zida gavdalantiradi. Ayniqsa, *do‘ppilardagi* mukammal rang-barang naqshlar xalqimizning o‘ziga xos milliy xarakteri – xalq qalbining jo‘shqinligi, tabiatga yaqinligi, u bilan hamnafas ekanligini ifodalab turadi.

Qoraqalpoq xalqida **qara** (qora) so‘zi oddiy *qora* rangni emas, balki ba’zi hollarda unga nisbatan keng tushunchani ifodalaydi. Hatto, millat nomini anglatuvchi “qaraqalpaq” etnonimi tarkibida *qara* so‘zining qo‘llanilganligi uning konsept darajasiga ko‘tarilganligini tasdiqlaydi. Millat nomi – qaraqalpaq tarkibidagi *qara* so‘zi bu xalqning “oddiy, soddadil, samimiy va mehnatkash” ekanligini bildiradi. Manbada qayd qilinishicha, “qara” qadimgi turkiy xalqlarda rangni emas, balki birinchi navbatda, “buyuk”, “keng” degan ma’noni anglatgan. “Qaraqalpaq” so‘zidagi “qara” ham “buyuk, yirik” degan mazmunni ifodalaydi⁴⁸. Shu bilan birga, qoraqalpoq tiliga doir manbada *qara* so‘zining yigirmata ma’nosi izohlangan bo‘lib, ulardan biri “oddiy” degan tushunchani anglatadi. *Qara puqarası bulardıń ishinde de barshılıq* (Sh.Seytov)⁴⁹.

Bobning ikkinchi bo‘limida “*Frazeologiyada millat tili va madaniyati tavsifi*” masalasi o‘rganilgan. Hozirgi kunda dunyo tilshunoslari diqqat markazida turgan eng muhim masalalardan biri frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish bo‘lib hisoblanadi.

Umumtilshunoslikda frazeologik birliklarning lingvomadaniy tavsifi dastlab rus tilshunosi V.N.Teliya va uning izdoshlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u o‘zining fundamental asarida frazemalar ma’lum etnosning lingvomadaniy tabiatini eng yorqin namoyon etuvchi birliklar ekanligini ta’kidlagan⁵⁰. Lingvokulturologiya sohasi doirasida maxsus tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova frazeologizmlarni muhim lingvomadaniy birliklar sifatida baholagan. Frazeologizmlar semantik, struktural-grammatik va uslubiy-pragmatik jihatdan keng qamrovli tarzda tahlil etilib, shunga aloqador ishlar yetarli bo‘lishiga qaramay, ularning tillararo milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy holda o‘rganish borasida hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Boshini ko‘kka yetkazmoq frazemasi o‘zbek tilida “behad sevinmoq” tushunchasini anglatadi [ЎТФЛ: 47]. Uning *boshini osmonga yetkazmoq* muqobili ham mavjud. Shuningdek, o‘zbek tilida ushbu iboraning **Terisiga sig‘may ketmoq** muqobili faol qo‘llanilishini ta’kidlash kerak. Qoraqalpoq xalqi tomonidan bu birliklarga mazmunan mos keluvchi **Tóbesi kókke jetiw** frazeologizmi sermahsul ishlatiladi. U o‘zida davr ruhini, qoraqalpoqlarning o‘tmishga mansub madaniyatini birmuncha mufassal yoritishga ixtisoslashganligi bilan alohida

⁴⁸ Бахадырова С. Қарақалпақ қандай халық. –Ташкент: Наврўз, 2017. –Б. 65.

⁴⁹ Санкибаева Р. Қарақалпақ тилиндеги ақ хэм қара сөзлериниң мәнилери хэм қолланылыўы. –Нөкис: “Қарақалпақстан”, 2020. –Б. 7.

⁵⁰ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. –288 с.

ahamiyatga molik. Qoraqalpoq tiliga oid lugʻatlarda *tóbesi kókke jetiw* frazemasida “juda quvonmoq, shod boʻlmoq, koʻngli toʻlmoq” kabi maʼnolarni ifodalashi keltirilgan boʻlib, xususan, “Qoraqalpoq tilining qisqacha frazeologik lugʻati”da uning *túyesi tawǵa shıǵıw, jıǵısı tawǵa shıǵıw* hamda *kemesi qırǵa shıǵıw* singari muqobillari qayd etilgan [QTQFS: 145]. Tahlildagi iboralar haqidagi mulohazaga koʻra, qoraqalpoq xalqining oʻtmishdagi hayoti bevosita chorvachilik bilan bogʻliq boʻlganligi bois, bu tildagi frazeologizmlar lingvokulturologik unsurlarni oʻzida mujassam etgan. Shuning uchun *tóbesi kókke jetiw* frazemasida qoraqalpoq xalqining qadimgi turmush tarziga doir milliy xususiyatlar namoyon boʻlgan⁵¹.

Ushbu bobning uchinchi boʻlimida “*Frazeologik birliklarda antroponimlar tarkibi*” tahlil markaziga olingan. Har qanday tilga tegishli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini oʻrganishda, birinchi navbatda, ularga xos antropologik aspekt tahlili eʼtiborga olinishi zarur. Chunki antroponim komponentli frazeologizmlar til sohibi mansub boʻlgan millatning ramzi hisoblanadi. Oʻzbek va qoraqalpoq tillaridagi frazeologizmlar oʻsha xalqlar ijodkorligi namunasi boʻlganligi bois tadqiqotda, asosan, oʻz qatlamga mansub boʻlgan antroponim komponentli frazeologik birliklar lingvokulturologik jihatdan oʻrganilgan. Tilning frazeologik qatlami vaqt oʻtishi bilan, davrlar mobaynida sayqallanib, yangisi bilan boyib, toʻldirilib borishi tabiiy hol. Shunday ekan, bugungi kunda nafaqat boshqa tillarni oʻrganuvchilar uchun, balki, oʻsha tilning sohiblari uchun ham oʻz qatlamga mansub antroponim komponentli frazeologik birliklar tarixini, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini mukammal darajada bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiy tillar kelib chiqishiga koʻra bir-biriga juda yaqin. Ularning tuzilishida deyarli bir xillik mavjud. Biroq har bir xalq milliy nigohi, tasavvur va tafakkuri, olam manzarasini idrok etishi orqali anglashi va lisonda turfa xil taʼriflashiga aloqador ayrim tafovutlar eʼtiborga tushadi. Bu holat, birinchidan, anʼanaviy ismlar bilan bogʻliq frazeologizmlarda, ikkinchidan, xalq afsonalari, rivoyatlari, urf-odatlar va diniy tushunchalarni aks ettiruvchi antroponim komponentli frazeologik birliklar misolida yorqin namoyon boʻladi.

Oʻzbek xalqi orasida **Odam atodan qolgan** degan ibora ishlatiladi. Muqobili: almisoqdan qolgan; daqqiyunusdan qolgan. *Men balki yanglisharman. Yanglishmoq odam atodan qolgan meros* (Oybek, Oltin vodiya shabadalar) [ЎТФЛ: 185]. Qoraqalpoqlarda ham ushbu frazema mavjud boʻlib, **Atam zamanindagi** – “juda qadimiy, eski” [ФЕКРС: 71], **Adam atadan qalغان** – “qadimgi, eski, koʻhna” deb tavsiflangan [QTFS: 5]. Maʼlumki, insoniyatning asosi, ibtidosi Odam Atodan boshlanadi. Insonlar koʻpayib borgani sari har kim har yurtda makon tutib, ular bir-birlari tillarini tushunmaydigan darajaga yetishgan. Ularning oʻzlari uchun xos madaniyati ham shakllana boshlagan. Shunga bogʻliq holda hayotdagi biror narsa yoki hodisa haqida gap borganda, agar u eski boʻlsa, yoki ilgari surilayotgan muayyan fikr yangi zamon talablariga muvofiq kelmasa, “*Odam atodan qolgan*” degan frazema ishlatiladi.

⁵¹ Бабаджанов М.К. Ўзбекча-қорақалпоқча бадий таржималарда фразеологизмларнинг ифодаланиши: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2020. –Б. 26.

Uchinchi bobning to'rtinchi bo'limi "*Lingvokulturologik aspektda paremiyalar*" masalasiga bag'ishlangan. Paremiyalar (maqol, matal, hikmatli so'zlar) qadimgi davrlardan paydo bo'lgan. Ularning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi. Paremiyalarning katta qismi hali yozuv paydo bo'lmagan davrlardan boshlab vujudga kelgan. Shu sababli paremiyalar xalqona kelib chiqish tarixiga ega. Paremiyalar frazeologik birliklarga juda o'xshaydi. Ammo ular o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra frazemalardan farqlanadi. Paremiyalarga folklor (xalq og'zaki ijodi) mahsuli sifatida qaralishi hamda frazeologiya sohasi tarkibida tahlilga tortilishi maqolshunoslikning muayyan darajada chegaralanib qolishiga olib keldi.

Tilshunoslikda paremiyalar barqaror birliklar sifatida lisoniy hodisa deb e'tirof etilsa-da, ularning lisoniy mohiyatiga yetarlicha baho berilgan, deyish noto'g'ri bo'ladi. Fanimizda lisoniy birlik sifatida uning ayrim sintaktik xususiyatlarigina tahlilga tortilgan xolos⁵². Shu nuqtayi nazardan, paremiyalarni, ham xalq og'zaki ijodi namunalari darajasida, ham lingvokulturologiyaning birligi sifatida tadqiq etish uchun alohida soha vujudga keldiki, u *paremiologiya* tarmog'i deb ataladi. Paremiologiya (yunon tilidan olingan bo'lib, *paroimia* – "maqol, hikmatli so'z, matal", *logos* – "fan" degan ma'noni bildiradi)⁵³. Demak, paremiologiya maqol, matal, aforizmlarni o'rganuvchi fan bo'lib, uning o'rganish obyekti paremiyalar hisoblanadi. Ayniqsa, lingvokulturologiyaning o'rganish predmetlari orasida paremiya (maqol) lar alohida ajralib turadi.

Rus tilshunosligida paremiologiya sohasiga aloqador bir qancha ishlar qilingan. Bu tadqiqotlarda rus tili ingliz, latish, litva, nemis tillari bilan qiyosiy aspektda o'rganilgan⁵⁴. O'zbek tilshunosligida ham paremiyalarni yoritishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan⁵⁵. O'zbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyati bir-biri bilan yaxlitlikni vujudga keltiradi. Shunday bo'lsa-da, ularning paremiologik birliklarida ayrim tafovutlar kuzatiladi. Ana shunday jihatlarni ko'rsatib berish uchun har ikki millat mentalitetiga xos xususiyatlarni o'zida jamlagan paremiyalarni lingvokulturologik jihatdan talqin qilish muhim ahamiyatga ega.

Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga [O'XM: 464] // Jas kelse – iske, g'arrı kelse – asqa [QF – 90: 175]. O'zbek va qoraqalpoq xalqlarida keksa kishilarni, tabarruk yoshdagi qariyalarni farishtaga qiyoslashadi. Shuning uchun

⁵² Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 2007. –С. 50.

⁵³ <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Paremiology>.

⁵⁴ Дубровская О.Г. Лингвокультурологический аспект сопоставительного исследования русских и английских пословиц об уме и глупости: Дисс. ... канд. филол. наук. –Екатеринбург, 2000; Бредис М.А. Представление о денежных отношениях в пословицах (на материале русского, латышского, литовского, немецкого и английского языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –М., 2017; Каллаева Дж. А. Лингвокультурологический анализ лакских и английских паремий: Дисс. ... канд. филол. наук. –Махачкала, 2011; Аксенова Е.Д. Лингвокультурологический анализ концептосферы "здоровья человека" в русской паремиологии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –М., 2007.

⁵⁵ Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Қўқон, 2019. –138 б; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Тошкент, 2017. –54 б; Абдуллаева Н.Э. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2019. –174 б.

“*Qarisi bor uyning parisi bor*” deyishadi. Qadimgi davrlardan boshlab qariyalar ma’lum bir kishining uyiga qay vaqtda kelishidan qat’iy nazar, ularga hurmat ko’rsatib to’rga o’tkazish, osh-ovqatga tortish har ikki xalq orasida odatga aylangan. Keksa yoshdagi kishilar farishta misol ko’rilgan. Shuningdek, agar uyda biror yumush bajarilayotgan bo’lsa, yosh yigit o’sha mehnat qilinayotgan paytda xonadonga tashrif buyursa, uni ham ishga jalb qilish maqsadida unga qarata “*Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga*” // “*Jas kelse – iske, garrı kelse – asqa*” deb yuzlanish urf bo’lgan. Bu paremiyalar zamirida xalqlarimizning o’tmishdan saqlanib kelayotgan milliy-madaniy xususiyatlari yashiringan.

Uchinchi bobning beshinchi bo’limi “*Paremiyalarda gender konsepti talqini*” deb nomlanadi. Dastlab gender tushunchasini ilm ahliga ilk bor amerikalik psixoanalitik R.Stoller taqdim etganligi, u genderni ikkiga, ya’ni biologik (jins) va sotsiologik (gender) turlarga ajratib o’rganishni taklif etganligi⁵⁶ haqidagi fikrlar aks etgan. Uning tavsiyasiga binoan zamonaviy gumanitar bilimlar orasida gender tilshunosligi deb nomlangan alohida yo’nalishning shakllanishi va yuksalishiga keng yo’l ochilgan. Tildagi gender omillar rus tilshunoslari O.A.Vaskova, I.V.Zikova, A.V.Kirilina, V.A.Nikolskayalar tomonidan tadqiq etilgan⁵⁷. O’zbek tilshunosligida I.M.To’xtasinov ingliz va o’zbek tillari badiiy matnida qo’shma so’zlarning lingvokulturologik va gender xususiyatlarini batafsil yoritgan⁵⁸. G.I.Ergasheva gender terminlari shakllanishining lingvistik va ekstralingvistik omillarini aniqlagan⁵⁹. A.A.Morozova ispan tilida erkaklar va ayollarga xos konseptlarning shakllanishi va qo’llanilishini o’rgangan⁶⁰. N.Z.Nasrullayeva esa ingliz va o’zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarning shakllanishi masalasini tadqiq etgan⁶¹.

Turli xalqlarda jins haqidagi tasavvurlar, erkak va ayol konseptlarining tarkibi bir xil emas. Har qaysi millat, hattoki, bir-biriga qarindosh xalqlar milliy-madaniyatini o’zida aks ettiruvchi paremiyalar ham gender xususiyatiga ko’ra farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o’zbek va qoraqalpoq xalqlari paremiyalaridagi gender konseptni lingvokulturologik tomondan o’rganish zamonaviy tilshunoslikdagi e’tibortalab masaladir. Bunda har ikki xalq og’zaki ijodi namunalari orasidan faqat milliy xususiyatlari yanada bo’rtib turgan er – o’g’il,

⁵⁶ Stoller R.J. Presentations of Gender. –New Heaven, 1985. –P. 45.

⁵⁷ Васькова О.А. Гендер как предмет лексикографического описания (на материале фразеологии): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Москва, 2006. –21 с; Зыкова И.В. Гендерный компонент в структуре и семантике фразеологических единиц современного английского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. –Москва: МГУ, 2002. –219 с; Кирилина А.В. Гендерные аспекты языка и коммуникации: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. –Москва, 2000. –40 с; Никольская В.А. Гендерные асимметрии и стереотипы в английской фразеологии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Н.Новгород, 2005. –23 с.

⁵⁸ Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент: УзГУМЯ, 2011. –30 с.

⁵⁹ Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2011. –165 б.

⁶⁰ Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Самарканд: СамГИИЯ, 2011. –25 с.

⁶¹ Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларнинг шаклланиши: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дис. автореф. –Тошкент, 2018. –30 б.

xotin – qiz jinsiga aloqador paremiyalarni ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalqida **Er bo‘l, er bo‘lmasang, qaro yer bo‘l** paremiyasi qo‘llaniladi. Qoraqalpoq xalqi tomonidan bu paremiya ozroq o‘zgargan shaklda, ya’ni **Jigit bolsañ shoq bol, Shoq bolmasañ joq bol** tarzida ishlatiladi. O‘zbek xalqi ushbu paremiya orqali yigitlarni, avvalo, haqiqiy inson bo‘lishga chorlashgan. Agar xalqiga dushman ko‘lankasi soya solgudek bo‘lsa, hech narsadan toymaslikka, hattoki, jonini jabborga berib bo‘lsa ham eli sarhadlarini tish-tirnog‘i bilan bosqinchilar hujumidan himoya qilishga, ana shunday vaziyatlarda hamisha mard, jasur, qo‘rqmas, botir bo‘lishga da’vat etib kelishgan.

Qoraqalpoqlar ishlatadigan paremiya o‘zbek xalqi ijodkorligi namunasiga aynan o‘xshamaydi. Ushbu paremiyada yigitlarni butun hayoti davomida sho‘x bo‘lishga, so‘zamolligini namoyish etishga undash motivi aks etsa-da, uni konnotativ ma’noda idrok etish kerak. Paremiya zamirida, avvalo, haqiqiy er yigit bo‘lsang, boshqalarga nafing tegsin, o‘zingning serharakatchanliging, atrofingdagilar bilan til topisha olish salohiyating bilan barchaning e’tirofiga sazovor bo‘l, el-yurt nazariga tush. Agar bu narsa qo‘lingdan kelmasa, hayotda yashashingga ne hojat, degan ma’no mujassam.

Tadqiqotning to‘rtinchi bobi **“O‘zbek va qoraqalpoq tillari o‘xshatish, ramz va stereotiplarida milliy-madaniy qadriyatlarning ifodalanishi”** deb atalgan bo‘lib, u to‘rt bo‘lim asosida shakllangan. Bobning *“Til va milliy-madaniy qadriyatlar mushtarakligi”* deb nomlangan dastlabki bo‘limida har qanday xalq tarixiy o‘tmishidan guvohlik beruvchi qadriyatlarning tilda voqelanishiga doir fikrlar ifodalangan. Muayyan millatning tarixiy kechmishi, uzoq o‘tmishdagi yashash sharoiti, turmushi, madaniy merosi, ma’naviyatiga daxldor qadriyatlar manzarasining ifodachisi tildir.

O‘zbek xalqi motam marosimlarida **yig‘i** alohida o‘rinni egallaydi. Bu dunyoni tark etgan kishining dafn kunida erkak va, ayniqsa, ayollar dod solib yig‘laydilar. Vafot etgan kishiga marsiya aytib yig‘lash ko‘plab xalqlarda kuzatiladi. Aslida, bunday odatning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. O‘tgan zamonlardagi ota-bobolarimiz tasavvuriga ko‘ra inson o‘ladi, ammo uning hayoti o‘z nihoyasiga yetmaydi. Tana jonsiz yotishi mumkindir, biroq u atrofidagilarni ko‘radi, ularning so‘zlarini eshitadi. Shu sababli marhum yaqinlarining dastlabki qayg‘usi tabiiy ravishda ayriliq nolasi, yakkalanishdan hasrat, ojizlik, marhumning mardona xatti-harakatlari va yaxshi amallarini madh etish ko‘rinishidagi baland ovozi bo‘zlash shaklini olgan⁶². O‘zbeklarda vafot etgan kishining barcha yaqinlari, xususan, erkak kishilar dafn marosimida yangi, oxorli to‘n kiyib, bellarini bog‘lab, boshiga do‘ppi kiyib, yangi qirqilgan qora tol novdasini qo‘llariga hassa qilib olib, unga suyangan holda marhum qo‘yilgan xona atrofida aylanib marsiya aytib yig‘laganlar. Farg‘ona vodiysida bunday maxsus yig‘ichilar *“go‘yanda”* deb nomlangan⁶³.

⁶² Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. –Б. 110.

⁶³ O‘sha manba. –Б. 110.

Qoraqalpoq xalqida qazo qilgan kishining yaqinlariga hamdardlik bildirish, ta'ziyada ishtirok etish maqsadida uzoq-yaqindan yosh-u qari keladi. Vafot etgan kishining hurmati uchun tashrif buyurgan odamlar uy egasi yoki uning qarindosh-urug'laridan ko'ngil so'raydi. Azal-azaldan bu millat erkak-ayollarining tushkun kayfiyati, og'ir judolikka duchor bo'lganligi **dawis shigariw** (ovoz chiqarish) odati orqali ifodalanadi. Marhumning umr yo'ldoshi, qiz opasi, singlisi va qizlari ta'ziya kunida *joqlaw* (marsiya) aytishi ham mumkin. Chunki qadimgi davrlardan boshlab qoraqalpoq xalqi ayol-qizlarining o'z yaqinlaridan ajralganligini anglatuvchi *joqlawlarni* aytishi urf hisoblangan [QET: 157]. Bunda, asosan, marhumning fazilatlari, yaxshi sifatleri birma-bir aytib eslanadi. Bu qazo butun xonadon ahli uchun juda og'ir musibat bo'lganligi, marhumning barcha yaqinlari yuragini tilka-pora qilganligi yig'i aralash dardli ohangda bildiriladi. Bu dunyoni tark etgan kishining dafn marosimiga hozirlik ko'rib, uni yerga qo'yish arafasida turgan oiladagilar, barcha yaqin qarindoshlar, albatta, o'z qayg'usini yashirmasdan, ko'nglida kechayotgan g'am-alamini yig'isi orqali ifodalaydi.

Bobning ikkinchi bo'limida "*Turg'un o'xshatishlar – olamni idrok etish vositasi*" mavzusi o'rganilgan. O'xshatish // te'new o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bu kabi madaniy birliklar o'zida biror etnosga xos mentallikni, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko'rsatuvchi dalil hamdir. O'xshatishlar o'zida xalqning ijtimoiy, ma'naviy jihatdan rivojlanish bosqichlarini ham gavdalantiradi⁶⁴.

Ayniqsa, turg'un o'xshatishlar lingvokulturologik birlik sifatida alohida ajralib turadi. Chunki ular milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin, obrazli vositalardan biri hisoblanadi. Dunyoni o'ziga xos, milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi⁶⁵. Aytish muhimki, turg'un o'xshatishlar til tizimidagi frazeologizmlarning alohida, o'ziga xos bir guruhini tashkil etadi va ular aytarli tayyor holda nutqqa olib kiriladi. Turg'un o'xshatishlarning milliy-madaniy xususiyatlariga oid qarashlar qoraqalpoq xalqining zabardast yozuvchisi To'lapbergen Qayipbergenovning "Qoraqalpaqnama" roman-essesi (Hekis: "JETI IQLIM", 2021) hamda uning Rahimjon Otayev tomonidan o'zbek tiliga tarjimasini ("Қорақалпоқнома" Тошкент: "Шарқ" нашриёт матбаа концернининг бош тахририяти, 1997) bir-biriga qiyoslash asosida yoritilgan.

Har bir xalq o'zining asrlar silsilasiga bardosh berib kelayotgan urf-odat, an'ana, qadriyatlariga ega. Shular qatorida qoraqalpoq millatiga xos madaniyat namunalari ham o'zining takrorlanmasligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Muallif tomonidan ta'kidlanishicha, garchi bu xalq ozchilikni tashkil qilsada, ularning urf-odat, an'analari nihoyat darajada behisob: *Bizni xalqimiz burin makannan makanga kop quwiltwi, makanin qorgaw niyetinde uzaq jillar kasarisiwi natiyjesinde kop qirulip, Aral tehzini bir tasqinundagi bir qoltiq suwda bolinip qalgan baliq shelli az bolsa da, onin urp-adedi, minez-qulqi, omirden talabi kop*

⁶⁴ Худойберганова Д. Ўхшатиш мазмунини ифодаловчи матнлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№ 6 – Б. 15.

⁶⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. – М.: "Академия", 2001. –С.133-134.

hám úlken, oǵan okean baliqlarınıń minez-qulqı tńn (31-bet). Bizning xalqimiz makondan makonga darbadar kezish, o'z makonini yovdan himoya qilish yo'lidagi ko'pdan-ko'p qirg'inbarotlar natijasida qirilib-kamayib, Orol dengizining toshqinidan hosil bo'lgan ko'lmak suvda yakkalanib qolgan **baliqlardek** oz bo'lsa-da, uning urf-odati, hayotdan umidi ko'p. Unda ummon baliqlarining fe'l-atvori bo'lsa ne ajab! (33-bet). Ma'lumki, baliqning hayoti mudom suv bilan tirik. U hamisha suvda yashaydi. Shuning uchun dono xalqimizda baliqqa nisbatan poklik, beg'uborlik ramzi degan tasavvur mavjud. Bu o'rinda muallifning ushbu o'xshatishni qo'llashdagi mahoratiga qoyil qolish kerak. Chunki u ana shu o'xshatish orqali butun qoraqalpoq xalqining ko'ngli toza, samimiyligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

To'rtinchi bobning uchinchi bo'limi "*Ramzlarda millat ruhiyati istifodasi*" deb atalgan bo'lib, lingvokulturologiyada ramz // simvolning belgilik jihati muhim ahamiyatga egaligi, ramzlar har qanday millat ruhiyatini ifodalashi, ular orqali kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochilishi haqidagi qarashlar yoritilgan.

Tilshunos M.Yo'ldoshev ta'rificha, ramz – badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun so'zlarning ma'lum ravishda ko'chma ma'noda ishlatilishidir⁶⁶. Ramzlar qadriyatlar majmui sanaladi. Ularda muayyan davrda yashagan ajdodlarimizning hayot kechinmalari, urf-odatlarini, tasavvurlari muhrlangan. Ularni to'g'ri talqin etish o'tmishda yashagan ota-bobolarimizning ichki hissiyotlarini, dunyoqarashini haqqoniy ravishda baholash uchun xizmat qiladi.

O'zbek xalqi tomonidan **daraxt** – hayotning ramzi sifatida talqin etiladi. Aslida, xalqimiz daraxt deganda *chinor, qayrag'och, tut, terak*ni tushunadi. Dunyo madaniyatida *hayot daraxti* – butun olamning asosi (o'zak, o'q, ustun), ya'ni osmon, zamin va yer osti olamlarini o'zaro birlashtirib turuvchi vosita darajasida tasavvur etiladi. Shu nuqtayi nazardan, hayot daraxtining o'zbek xalqi orasidagi timsoli terak va chinor bo'lib hisoblanadi⁶⁷. E'tiborli jihat shuki, vodiy o'zbeklari odatiga ko'ra nikoh to'yi marosimlarida kelinning yuzi yosh go'dak tomonidan *mevali daraxt* novdasi bilan ochiladi. Ammo motam kuni marhumning yuziga tutilgan mato keksa ayol tomonidan *qurigan daraxt* novdasi bilan ochib qo'yiladi. Bunday urf respublikamizning boshqa hududlarida deyarli uchramaydi⁶⁸. Ushbu manzara orqali qurigan daraxtning o'lim ramzini ifodalashini anglash mumkin.

Turkiy xalqlarda *hayot daraxti* borliqni o'zida bog'lab turuvchi qurol sifatida gavdalanadi. Qoraqalpoq xalqi orasidagi o'sha hayot daraxti sanaluvchi **bayterek** to'g'risidagi afsonada butun olamning yaratilishiga doir turkiy xalqlarning o'y-xayollari mujassam bo'lgan. *Bayterek* bu – "terak, ya'ni ona terak" demakdir. *Bayterek*ning tomirlari yer osti dunyosi bilan tutashib ketgan. Uning tanasi yer ustidagi hayotni, shoxlari hamda yaproqlari esa eng yuqorida joylashgan osmonni

⁶⁶ Йўлдошев М. Бадий матнинг лисоний таҳлили. Услубий қўлланма. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. –130 б.

⁶⁷ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талкин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 70.

⁶⁸ Аширов А. Ко'rsatilgan manba. –Б. 111.

